

Usmonov Musurmon Mamirali o'g'li,

*Namangan davlat universiteti v.b dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

usmonovmusulmon89@gmail.com

+99894 306 3004

O'ZBEK SHEVALARI AREAL O'RGANILISHINING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur maqolamizda Namangan viloyati shevalarining tarixiy genezisi, tarqalishi va amal qilish arealini belgilash, sheva tasnifi va tavsifi tovushlar tizimining o'ziga xos fonetik-fonologik xususiyatlari, leksik-semantik va grammatik shakl va qurilmalarning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarning voqelanish jarayonlarini qiyosiy-tarixiy jihatdan yoritishga harakat qilamiz. Namangan viloyati shevalari arealidagi amaliyotlar natijasida aniqlangan misollar asosidagi o'ziga xos lingvistik xususiyatlar, jahon turkiy tillari va boshqa o'zbek shevalari bilan lisoniy jihatlaridagi mushtarak belgilar va ular haqidagi xulosalarni bayon qilishga urinamiz.

Kalit so'zlar: qishloq, dialekt, til, areal, urug', lingvistika, adabiy til, lug'at, fonetik hodisa, leksema.

Усмонов Мусурмон Мамирали угли,

Наманганский государственный университет и.о. доцента

Доктор философии по филологии (PhD)

usmonovmusulmon89@gmail.com

+99894 306 3004

АРЕАЛЬНОЕ ИЗУЧЕНИЕ ДИАЛЕКТОВ УЗБЕКИСТАНА НАУЧНЫЕ И ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ

Аннотация. В данной статье мы попытаемся выявить исторический генезис, распространение и ареал использования диалектов Наманганской

области, осветить процессы возникновения характерных фонетико-фонологических особенностей звукового строя, классификацию и описание диалекта, особенности и закономерности лексико-семантических и грамматических форм и структур, а также осветить сравнительно-исторический аспект. На основе примеров, выявленных в результате практической работы в области диалектов Наманганской области, мы попытаемся описать их специфические языковые особенности, общие черты в языковом плане с мировыми тюркскими языками и другими узбекскими диалектами и сделать выводы о них.

Ключевые слова: деревня, диалект, язык, область, племя, языкознание, литературный язык, словарь, фонетическое явление, лексема.

Usmonov Musurmon Mamirali ugli,

Namangan State University acting associate professor

Doctor of Philosophy in Philology (PhD)

usmonovmusulmon89@gmail.com

+99894 306 3004

SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS OF THE AREA STUDY OF UZBEKISTAN DIALECTS

Annotation. *In this article, we will attempt to identify the historical genesis, distribution, and area of use of the dialects of the Namangan region, to shed light on the processes of occurrence of the characteristic phonetic-phonological features of the sound system, the classification and description of the dialect, the peculiarities and laws of the lexical-semantic and grammatical forms and structures, and to shed light on the comparative-historical aspect. Based on examples identified as a result of practical work in the area of dialects of the Namangan region, we will try to describe their specific linguistic features, common features in linguistic aspects with world Turkic languages and other Uzbek dialects, and draw conclusions about them.*

Keywords: *village, dialect, language, area, tribe, linguistics, literary language, dictionary, phonetic phenomenon, lexeme.*

Kirish

Insoniyatning tili hamisha ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy, ma'naviy-axloqiy tamoyillar bilan birga, jamiyat taraqqiyoti bilan hamohang holda taraqqiy etadi, rivojlanadi. Bu ilm-fan uchun ma'lum hodisadir. Dunyo tilshunoslik sohasida jahonning yirik tilshunoslik maktablarining tarixiy shakllanish davriga e'tibor berilsa, ularning ilk amalga oshirgan va tadqiqotlarining markazida xalq jonli tili – shevasi turadi. Aniqki, xalq shevalari adabiy tilining yozma yodgorliklariga nisbatan ham qadimiyroq tarixiy manbadir. Bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklarda uchramaydigan til faktlari shevalarda saqlanib qolgan. Shuning uchun sheva materiallarini tadqiq etish tilning ontologik tabiatini ochib berish imkonini beradi[12,15].

Adabiyotlar tahlili

Dialektologiyaning taraqqiy va yakuniy holati hisoblanmish (agar ma'lum bir mamlakat shevalari to'liq va mukammal o'rganib bo'linsa) areal lingvistikaning yuzaga kelishining asosiy sababi uning shevashunoslik sohasida yechimi topilmagan, turg'un bo'lib qolgan ayrim jihatlarni, dialekt va shevalar mohiyati, xususiyatlari, o'zaro aloqalari, ularning tasnifi, tavsifi masalasidagi tushunchalarni yangicha baholashga, yangicha usullarda hal qilishga keng yo'l ochishi bo'ldi.

Shuning uchun ham dunyo ilm-fan tamaddunida areal tilshunoslik ko'p mundarijali soha bo'lib shakllandi, chunki arealogiya italyan neolingvistlari, jahon lingvogeograflari hamda tillar ittifoqi yo'nalishi vakili bo'lgan tilshunoslarning amalga oshirgan tadqiqotlarini o'zida mujassamlashtirdi. Tadqiqotlar negizida areal lingvistik konsepsiyalarning tadrijiy taraqqiyotini analiz va sintezlash natijasida dialektlarni umumiy tilshunoslikning bir aspekti sifatida o'rganish maqsadga muvofiq ekanligi isbotlandi. Dialektlarni arealogik tamoyillar va lingvistik tadqiqot metodlari asosida o'rganish muhim muammo sifatida

qo'yildi[1,3-8]. Binobarin, til sistemasini yaxlit o'rganishda dialekt va sheva areallarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etishi yaqqol yuzaga chiqdi.

Bilamizki, tilshunoslikning dialektologiya va areal tilshunoslik sohasi ekspeditsiyalar, amaliyotlar, lisoniy-jug'rofiy tahliliy usullar orqali ma'lum hududda tarqalgan til hodisalarini aniqlab, hududiy til xususiyatlarini o'rganadi. Ularning o'rni va tarqalish chegarasi va ko'lamini lingvistik xaritalar orqali namoyon etadi. Demak, muayyan xalqning jonli axborot va ma'lumot almashinuvi vositasi bo'lgan milliy shevalarining lingvistik xaritalarini yaratish dialektologiya va areologiya sohalarining taraqqiyotini ta'minlaydigan va ko'rsatib turuvchi eng muhim omillar hisoblanadi.

E'tibor qaratilsa, dunyoning rivojlangan mamlakatlarning tilshunoslik sohasi ham, lingvistik tadqiqotlarning ko'lamini ham tizimli taraqqiy etganligiga guvoh bo'lamiz. Qaysiki mamlakatda o'z xalqining jonli tili shevalari mukammal o'rganilgan bo'lsa, shu millat tilshunosligi tarmoqlari havas qiladigan darajada mukammallikka ega ekanligini kuzatish mumkin.

Jahon shevashunoslik sohasida dialektal hodisalarning mukammal arealini yaratish, shevalarning batafsil va tizimli, o'z ilmiy an'ana, tendensiyalari va tamoyillariga hamohang, uyg'un hamda tizimli tavsifi yaratilgan. Xususan, hind-yevropa tillari, slavyan tillari, german-roman va bolqon tillari o'rganilib, salmoqli yutuqlar qo'lga kiritilgan va bu dialektologik va areologik an'analarda ayni paytlarda ham yuqori darajada davom etmoqda.

Darhaqiqat, shevalar bo'yicha to'plangan dialektal materiallar asosida xalqlarning hayoti va turmush tarzi bilan bog'liq bo'lgan juda ko'plab so'zlar, grammatik shakllar hamda konstruksion qurilmaga ega gaplar adabiy tilga olib kiriladi. Ma'lum xalqqa, millatga tegishli adabiy til imkoniyatlari kengayib, boyib boraveradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mazkur maqolamizda Namangan viloyati shevalarining tarixiy genezisi, tarqalishi va amal qilish arealini belgilash, sheva tasnifi va tavsifi tovushlar tizimining o'ziga xos fonetik-fonologik xususiyatlari,

leksik-semantik va grammatik shakl va qurilmalarning o'ziga xos xususiyatlari va qonuniyatlarning voqelanish jarayonlarini qiyosiy-tarixiy jihatdan yoritishga harakat qilamiz. Namangan viloyati shevalari arealidagi amaliyotlar natijasida aniqlangan misollar asosidagi o'ziga xos lingvistik xususiyatlar, jahon turkiy tillari va boshqa o'zbek shevalari bilan lisoniy jihatlaridagi mushtarak belgilar va ular haqidagi xulosalarni bayon qilishga urinamiz.

Natijalar va ularning tahlili

Jahon tilshunosligidagi muhim masalalardan biri bu tilni areal-tipologik va areal-lingvistik metodlar orqali o'rganishdir. O'zbek tilshunosligida lingvistik nazariya va konsepsiyalarning ilk boshlang'ich nuqtasi – shevalarni, ularning o'ziga xos lisoniy belgi-xususiyatlarini tadqiq etish bugungi kunda qay darajada? Bu savollarga ham Namangan viloyati shevalari arealni o'rganish barobarida javob topishga harakat qilamiz.

O'zbekistonda ilm-fan rivojlanishi uchun olib borilayotgan bugungi islohotlarda o'zbek tilshunosligi oldiga qo'yilayotgan vazifalarni bajarishga to'liq imkoniyat va shart-sharoitlar mavjud. O'zbek tilini har tomonlama mukammal tadqiq etishga bag'ishlangan maqsadli ilmiy-tadqiqot ishlari keng ko'lamda amalga oshirilmoqda. Yuzlab mavzularda tilimiz yuzasidan dissertatsion tadqiqot ishlari himoya qilinmoqda. Biroq aksariyat o'zbek shevalari ochilmagan qo'riq, inson oyog'i tegmagan bir orol sifatida lingvistik jihatlarini, boy so'zliklari o'rganilmay yotibdi. Adabiy tilimizning kelajagiga, taraqqiysiga bu holatlarning ta'siri qanday bo'ladi? Adabiy til shevalardan oziqlanishi tabiiy-ku.

Ayni paytlarda o'zbek shevalari va ularning o'ziga xos xususiyatlarini areal lingvistik tadqiqotlar nazariy asoslariga tayanib, tarixiy-qiyosiy va etnolisoniy jihatdan tadqiq etish ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilanishi shart. Sohaning nomukammal, oddiy tavsifiy va tasviriy jihatlardan iborat noaniq o'rinlarni yangicha qarashlar asosida, mental nuqtayi nazaridan o'rganish va to'ldirishga zarurat sezilmoqda[1,3-8]. Shundagina tilshunoslik sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishimiz mumkin.

Aniqki, shevashunoslik bo'yicha amalga oshiriladigan tadqiqotlarda sheva lingvistik birliklarini areal lingvistik konsepsiyalar orqali tadrijiy taraqqiyot asosida analiz va sintezlash zarur. Dialektlarni umumiy tilshunoslikning bir aspekti sifatidagina emas, alohida kengaygan tarmoq va alohidalik belgilariga ega fan sifatida o'rganish maqsadga muvofiq bo'ladi.

O'zbek tilshunosligining dialektologiya va arealogiya sohasi vakillari ham o'z ilmiy tadqiqot ishlaridagi qarashlarida ham millat tilini dialektologik manba-materiallarni nafaqat tasviriy jihatdan, balki lingvistik geografik, areal lingvistik, qiyosiy, qiyosiy-tarixiy lingvomadaniy, etnolingvistik, tamoyillar asosida yaxlit o'rganish ko'proq samara berishi shubhasizdir. Dialektologik ishlarda hududiy til hodisalarining tarqalish ko'lamini va zonasini izoglassa (*izofonema – fonetik belgi, izomorfema – morfologik belgi, izoglassa – leksik belgi; izoglossa chiziqlari esa dialekt kontinuumi tilining (shevaning) lingvistik xaritasidagi odatiy tutashtiruvchi chiziqlari.*) va uning chiziqlari orqali belgilansa, tasviriylikdan qutilib, "nima uchun shunday?" degan savolga aniq ilmiy javob topa olamiz.

Turkiy tilshunoslikda XX asrning 50-60-yillardan boshlab lingvistik geografiyaga, lingvistik xaritalar masalasiga bir oz e'tibor kuchaydi. Bu masala va muammolar N.A.Baskakov, M.M.Shiraliyev, N.I.Tolstoy, N.Z.Gadjiyeva, E.V.Sevortyan, Sh.Shoabdurahmonov, A.Shermatov, N.B.Burganov kabi olimlar tomonidan yoritildi.

Rang-barang xususiyatlarni o'zida ifoda etuvchi o'zbek xalq shevalarining lingvistik xaritalardagi ko'rinishi til o'rganuvchilar uchun tilshunoslik va dialektologik qonuniyatlarni tushuntirishda, albatta, juda natijali va samarador bo'ladi. Ularda ko'rsatilgan dialektal xususiyatlar, tarqalish hudud – zonalarini tilshunosga til hodisalarining tarixiy taraqqiyoti, o'zbek milliy tilining shakllanish jarayonlari, adabiy til takomili kabi bir qancha masalalarni chuqur va mukammal o'rganish sharoitini yaratadi.

Lingvistik hodisalarning ma'lum kenglikda tarqalishi va tillararo (shevalararo) munosabatlarni lingvistik geografiya metodlari asosida tadqiq qilish va o'rganish tamoyillari til (sheva) xususiyatlarini areal bo'linishini tavsiflash va

ma'lum izoglassalarni tahlil qilish, shevalar, tillar jamoalarini (tillar ittifoqi) o'rtasidagi o'zaro ta'sir zonalarini (aniq areallarini) aniqlash uchun eng samarali usuldir.

O'zbek tilshunosligida areal tilshunoslik asosida o'rganishda A.Jo'rayev, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov kabi areolog – shevashunoslarning mehnatini alohida ta'kidlash lozim. Bu borada O'zbekiston Respublikasida o'zbek tilli massivlarning areal o'rganilishining nazariy asoslarini yoritib bergan professor A.B.Jo'rayev xizmatlarini alohida ko'rsatib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Professor A.Nurmonov “O'zbek dialektologiyasining shakllanishi va rivojlanishi” nomli maqolasida “o'zbek mahalliy shevalarini o'rganishda “Chig'atoy gurungi” olg'a surgan g'oya katta xizmat qildi. Bunga ko'ra “tilimizning adabiyligi arabiyligida emas, o'zidadir, shuni tirguzmak”, “tilimiz qoidalarini tatarcha yoxud usmonlicha emas, tilimizning o'zidan olmoq” kerak edi. Shuning uchun “xalq og'zida yurgan so'zlarni, xalq adabiyoti bo'lg'on ertaklar, maqollar yig'ib tekshirmak lozim”ligini ta'kidlab, shundagina jonli xalq tilining o'ziga xos xususiyatlarini haqqoniy o'rganishga bel bog'lanishini aytib o'tadi[2,425-426]. Olim fikrlari davomida o'zbek shevashunosligi fanining rivoji uchun salmoqli ulush qo'shgan fan fidoyilari – A.Shermatovning lingvogeografiyaga, A.B.Jo'rayevning areal lingvistikaga katta yo'l ochganligini hamda o'zbek dialektologiyasining keng front bo'ylab ravnaq topishi o'zbek tilini lingvistik xaritalashtirishga keng imkoniyatlar tug'dirishini va lingvogeografik va areal tadqiqotlar olib borishga sharoit yaratishini, yangi tadqiqotlar dunyoga kelishi o'zbek tilshunosligining katta yutug'i bo'lishini ta'kidlagan edi[2,425-426].

A.B.Jo'rayevning natijali ilmiy izlanishlari o'zbek areal tilshunosligi bo'yicha amalga oshirilgan yagona ish sifatida ahamiyatlidir.

Boy tilshunosligimizning tarixidan ma'lumki, o'zbek dialektologiyasining va areal lingvistikasining nazariy asoslari Mahmud Koshg'ariyning “Devonu lug'otit-turk”, Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug'atayn” asarlari, keyinchalik Z.M.Bobur, Abulg'oz Bahodirxon me'rosi bilan bir davrda yoki ulardan ham avvalroq shakllanib ulgurgan.

Biz o'zbek shevalari o'rganilishining ilmiy-nazariy asoslarini butun O'zbekiston shevalari miqyosida emas, balki Namangan viloyati shevalari arealining o'rganilishi ko'lam doirasida belgilaymiz va bular asosida xulosa va to'xtamlarimizni ifodalashga harakat qilamiz.

Hozirgi o'zbek adabiy tilining poydevor va tayanch birliklarining aksariyati Farg'ona vodiysi shevalarining mahsulidir. Shuning uchun ham akademik A.K.Borovkov o'z ilmiy izlanishlarini Farg'ona vodiysi shevalaridan materiallar to'plashdan boshlangani bejiz emas. Biroq u davrlarda mamlakatimizda shevashunoslik faoliyatini birlashtiruvchi markazning yo'qligi dialektal manba-materiallarni batafsil qayta ko'rib chiqish va xaritalarga ko'chirish imkoniyatiga yo'l bermagan edi. Bir muddat avvalroq etnograf-tarixchi va dialektolog-tilshunos E.D.Polivanov hamda G'.O.Yunusov, I.K.Yudaxinlar ham o'zbek shevalari va ularning lisoniy xususiyatlarini o'rganish, sheva birliklarini xaritalashtirish ishlarini amalga oshirdilar. O'zbekistonda shevalarni o'rganish kuchaydi va ularning areallarini belgilash ishi kun tartibiga qo'yildi. V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov kabi tilshunoslar o'zbek areal tilshunosligi sohasini nazariy va ilmiy-amaliy asoslar bilan o'zlarining ilmiy asarlari, asosli manba – materiallar bilan boyitishga, o'zbek dialektologiya sohasining rivojlanishiga, takomillashishiga salmoqli ulush qo'shdilar.

O'zbek dialektlari arealini xaritalashtirishda professor V.V.Reshetovning xizmatlari katta. U Toshkent viloyati bo'yicha dialektologik tadqiqotlar olib borib, Ohangaron vohasidagi shevalarda uchraydigan adabiy tildan fonetik, leksik va grammatik jihatdan keskin farq qiluvchi birliklarni aniqladi. Ularni lingvistik xaritalarga ko'chirganligi haqida ma'lumotlar uchraydi. Dialektolog olim A.Shermatov V.V.Reshetovning hozirgi zamon o'zbek tilshunoslik sohasi o'zbek shevashunosligida birinchi bo'lib o'zbek qurama shevalarning 49 ta lingvistik xaritasini tuzganligini, negadir hozirgacha bu xaritalar mavjud emasligini, nashr qilinmaganligini yozadi[3,4].

Tadrijiy – evolyutsion rivojlanish har qanday fanga xos, bu yangilik emas. O'rta Osiyodagi va boshqa yer yuzidagi turkiylar, turkiy lingvistikaga,

shevashunoslikka XI asrdayoq Mahmud Koshg'ariy, keyinchalik, Alisher Navoiy tomonidan haqiqiy asos solingan bo'lsa, ularning ilmiy-nazariy qarashlari hozirgacha turkiy va o'zbek tilshunosligining bebaho xazinasini sifatida baholanib, o'rganilib kelmoqda.

Turkiy tillarning ilmiy o'rganilishi o'zbek tilshunosligi, xususan, o'zbek dialektologiyasi sohasining rivoj topishida muhim bosqich sanaladiki, bunda turkolog olim N.A.Baskakov va boshqa ko'plab turkiyshunoslarning ilmiy-nazariy konsepsiyalari turkologiya va o'zbek shevashunosligi taraqqiyotiga alohida hissa qo'shgan.

O'zbek dialektlari arealini E.D.Polivanov salmoqli nazariy va amaliy ishlarni amalga oshirdi va o'zbek shevalarini birinchilardan bo'lib tasniflab berdi[4,45].

K.K.Yudaxin o'zbek shevalari genezisidagi interferentsiya – o'zbek-uyg'ur va qirg'iz-o'zbek-tojik tillari orasidagi o'zaro munosabatlar masalasini oydinlashtirib berdi. Chig'atoy tili tovush tizimini sinchiklab, chuqur o'rgandi[5,31-59].

A.K.Borovkov esa, o'z izlanishlari orqali o'zbek-tojik tillarining o'zaro munosabati, o'zbek shevalarining tasnifi va tavsifi, o'zbek dialektlari fonetikasiga katta urg'u berdi[6,58-74].

V.V.Reshetov esa o'zbek shevalarining fonetikasi, uning transkriptsiyasi, o'zbek milliy tilining dialektal asoslari bo'lgan muhim masalalarni oydinlashtirishga harakat qildi. Toshkent, Ohangaron hududlari, Marg'ilon, Namangan kabi yirik shaharlar shevalarini o'rganib, hozirgi o'zbek adabiy tiliga asos bo'lgan o'zbek shevalarning adabiy tilga bo'lgan munosabati, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy-nazariy tarzda ko'rsatib berdi. Qurama genezisining ilmiy-nazariy va amaliy asosini aniqlashga muvaffaq bo'ldi va qurama shevalarining o'ziga xos xususiyatlarini, ayniqsa, fonetik sathini tasniflab berdi[7,55-84].

Bir talay o'zbek millatining zabardast tilshunos – dialektologlari Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullayev, Y.G'ulomov, Sh.Afzalov, X.Donyorov, A.Y.Aliyev, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov til fidoiylari o'zbek shevalari

fonetikasi, leksikasi va grammatikasi o'rganilishi yo'lida salmoqli ishlarni amalga oshirdilar.

Aytish kerakki, o'zbek shevalari lisoniy xususiyatlarini o'rganishda o'zbek dialektologiyasining o'z an'analari, o'ziga xos tamoyil va asoslari bor. Katta avlod olimlari tomonidan boshlangan o'zbek shevalarining ilmiy asosda o'rganilishini Sh.Shoadurahmonov, F.Abdullayev, X.Donyorov, S.Ibrohimov, A.Ishayev, A.Aliyev, N.Rajabov, Sh.Nosirov, S.Otamirzayeva, H.Uzoqov, S.Tulyakov va boshqa olimlar davom ettirdilar.

XX asrning uchinchi choragi, aniqrog'i, 60-70-yillariga kelib, o'zbek shevashunosligida ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirish kuchaydi. A.Ishayevning Mang'it shevasiga bag'ishlangan izlanishlari[8,465], F.Abdullayevning dialektologik tadqiqotlari[9,34-56] salmog'i, ilmiylik jihatlari bilan qimmatlidir.

Bu davrda Namangan viloyati shevalarini o'rganish ham kuchaya bordi. Namangan shahar tip shevasining fonetik strukturasi eksperimental tahlillar asosida o'rganilgan, uning boshqa o'zbek shevalaridan tubdan farq qilishi, faqat Namangan shahar arealigagini xos lisoniy belgilari aniqlangan S.Otamirzayevaning Namangan shevasi fonetikasiga bag'ishlangan tadqiqotlari monografik tarzda[10,29-41] maydonga keldi.

A.Turg'unovning o'zbek tili Baliqchi guruh shevalari, H.Hamroyevning o'zbek tili Qashqadaryo shevalari, D.Abdullayevaning o'zbek tili Oshoba shevasi lisoniy xususiyatlari dialektal tahlil qilingan tadqiqotlari, yana boshqa ko'plab o'zbek shevalarini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar amalga oshirildi.

O'zbek tilshunosligining mukammal tarmog'i sifatida shakllangan bo'lishiga qaramay, deyarli yarim asrdan ko'proq yillar davomida o'zbek shevashunosligi bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ilmiy izlanishlar, tadqiqotlar juda kam, talab darajasida amalga oshirilmayapti. Adabiy tilimizning boyish va oziqlanish manbayi o'rganilmay, bu adabiy tilimizning taraqqiy etishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatganday bo'lib ko'rinmoqda.

Bugungi kunga kelib ham o'zbek shevalari bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lami juda kengayib keta olmayapti. Lingvistik geografiya, areal

tilshunoslik nuqtayi nazaridan hali o'zbek shevalarini to'la tahlilga tortilgan deb bo'lmaydi. Ayniqsa, O'zbekistonning markaziy va aholisi zich yirik shaharlaridan uzoq joylashgan aholi shevalarini areal o'rganilishi hali o'z yakunini topmagan. Dialektal faktlarni o'rganish xalqimiz milliy vakillarning etnik, mental, ma'naviy va madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Zero, til millatning bebaho qadriyati, donishmandlar ta'kidlaganidek: "Tilda millat ruhi yashaydi"[12,15-21].

Jahonda areal lingvistik tadqiqotlar juda ko'p miqdorda amalga oshirilgani bois ularning barchasi haqida ma'lumot berish ancha murakkab.

Mamlakatimizda o'zbek shevalari o'rganilishining ilmiy-nazariy asoslarini ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Hozirgi tilshunoslik sohasidagi sof dialektologik ko'lamdagi ilmiy tadqiqot ishlari. Ularda, asosan, shevaning o'ziga xos fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari aholi yashash manzillarining nomi keltirilib, lingvistik xaritalash orqali o'rganilgan. Bu jarayon XX asrning 90-yillariga qadar davom etdi, hozirda ham amalga oshirilmoqda. Xususan, o'zbek shevalarini o'rgangan o'zbek tilshunoslardan aksariyat tadqiqot ishlarini mazkur guruhga kiritish mumkin. Hozirgi o'zbek tilidagi ilk tadqiqot ishlari sifatida E.D.Polivanovning asarlarini[11,190] keltirish lozim.

XXI asrning boshlaridan to hozirgi kunlargacha Norbayeva Shukurjon Xayitbayevnaning "Xorazm shevalari kasbiy leksikasi shakllanishining onomasiologik tamoyillari" (2016), Allaberdiyev Alijon Avezberdiyevich tomonidan "Buxoro o'g'uz shevalari leksikasi" (2018), Xolova Muyassar Abdulxakimovnaning 2022-yilda "O'zbek milliy shevalari korpusi tadqiqi (Boysun tumani "j"lovchi shevalari misolida) dissertatsion tadqiqot ishi, "O'zbek milliy shevalari korpusi tadqiqi" (2022) monografiyasi hamda "O'zbek tili dialektal korpusini tuzish amaliyoti" (2023) darsligi, Xidiraliyeva Zoxira Risqulovnaning "O'zbek tilining Iqon shevasi" (2023) kabi o'zbek shevalarini dialektologik aspektlarda o'rganish ishlari maydonga keldi.

2. Mahmud Koshg'ariy ilmiy an'analirini davom ettirgan holda lingvogeografik metod asosida o'zbek shevalari arealogik aspektlarda o'rganilgan

ilmiy faoliyatda quyidagilarni e'tirof etish maqsadga muvofiq: Sh.Shoadurahmonov, V.V.Reshetov, A.Jo'rayev, A.Shermatov, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov, N.Murodova, Z.Ibrohimova, I.Darvishov, N.Rahmonovlarning monografik izlanishlari, Sh.Norbayeva, G.Norova, A.Turdaliyev, M.Suvanova, Sh.Alimova, Z.Xidiraliyeva, O.Nurjanov, Z.Tillabayeva, A.Allaberdiyevlarning dissertatsion tadqiqotlari o'zbek shevalari o'rganilishining nazariy asoslarining mustahkamlanishiga ilmiy jihatdan munosib ulush bo'lib qo'shilgan, desak xato bo'lmaydi.

Shevalarni areal aspektlarda o'rganish bo'yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda, asosan, O'zbekistonda dialektologik atlas yaratish ishlari, o'z lingvistik qarashlarini dialektologik xaritalar tuzish orqali bayon qilganlar va o'rganilgan areallarning lingvistik atlaslarini taqdim etganlar.

Shuni ta'kidlash lozimki, hali mamlakatimizda o'zbek milliy shevalari dialektologik atlasini yaratish ishiga hali to'liq kirishilganicha yo'q, lekin areal lingvistika masalalari o'zbek tilshunosligida o'tgan asrning 20-yillaridayoq tadqiq qilina boshlagan "...E.D.Polivanovning "O'zbek dialektologiyasi va o'zbek adabiy tili" degan asari ahamiyatlidir. Asarda o'zbek shevalarining tarqalishi, ularning yaqinlik darajasi, ularga xos fonetik, leksik, morfologik xususiyatlar belgilab berilgan. Muhimi, o'zbek tilining uch lahjasi turkiy tillar tarixi bilan bog'lanadi, o'zbek shevalarining chegaradosh tillar bilan munosabati ham e'tibordan chetda qolmagan.

Aniqki, xalq shevalari adabiy tilining yozma yodgorliklariga nisbatan ham qadimiyroq tarixiy manbadir. Bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklarda uchramaydigan til faktlari shevalarda saqlanib qolgan. Shuning uchun sheva materiallarini tadqiq etish tilning ontologik tabiatini ochib berish imkonini beradi.

Darhaqiqat, o'zbek shevalari o'zbek milliy tilining tarkibiy qismi sifatida, o'zining qadimiy lisoniy hodisa ekanligi, asrlar davomida rivojlanib, boyib hamda takomillashib borganligi uning rang-barang jiloga ega ekanligi, adabiy tilimiz boyishiga beminnat xizmat qilishi bilan tavsiflanadi. Xalq sheva va lahjalari o'zida tilning qadimiy va ko'hna holatini, fonetik, lug'aviy, grammatik xususiyatlarini

saqlab kelayotgan noyob manba – tirik tarixdir. Bu boylikni o‘rganish bo‘yicha anchagina ishlar amalga oshirilishi lozimligini bugungi adabiy tilimizdan foydalanayotgan xalqimiz lisoniy va nutqiy darajasidan ham bilsak bo‘ladi. Ayniqsa, zamonaviy yoshlarimizning milliy-mental ruhda tarbiyalanishlariga bir omil bo‘ladi.

Xususan, boshqa turkiy tillarda bo‘lgani kabi Namangan viloyati shevalarida ham o‘zbek xalqining uzoq davom etgan qadimiy asos – “Devoni lug‘otit-turk” davri fonetikasi, leksikasi va grammatikasidagi mushtarak xususiyatlar sheva areali tahlillari davomida ma’lum bo‘ldi.

Xulosa

Namangan viloyati shevasidagi eng asosiy fokus nuqta “Devon” davri tilida mavjud turkiy tillarning “temir qonuni” bo‘lgan singarmonizm qonuni hamda nazalizatsiyaning to‘liq saqlanib qolganligidir.

Sheva leksikasi materiallarini to‘plash va ularni tasnif qilish mazkur sheva nihoyatda xilma-xil va ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatib berdi. Areal aholisi tilida iste’molda bo‘lgan hunarmandchilik, kasb-korga, qishloq xo‘jaligiga oid terminlar, kishilarning kundalik turmushi, falsafiy-diniy qarashlariga oid so‘zlar, qadimiy ma’rifiy madaniyati, mental jihatlarni o‘zida ifodalab berishi namoyon bo‘ldi.

Shuni alohida ta’kidlab o‘tmoqchimizki, ona tili darsliklarimizning birinchi – ilk beti davlatimizning ramzlari bilan boshlanadi. Biz ko‘p hollarda e’tibor bermaydigan bir jihat bor: shu joyda O‘zbekiston xaritasi ham albatta joy olgan. Buning sababi esa, O‘zbekiston aholisining asosi o‘zbek tilida so‘zlashuvchi xalqlar, ularning tili (shevalari) adabiy tilimizga ilmiy-nazariy manba bo‘lganligini ifodalab beradi. Aksariyat mamlakatlar, ayniqsa, rivojlangan mamlakatlar, o‘z tillarini o‘rganishni xaritalardan boshlaydilar. Ona tili sinfxonalari va auditoriyalarida o‘z mamlakatlarining bayrog‘i, gerbi, madhiyasi bilan bir qatorda uning xaritasi ham mavjud bo‘ladi. Bu esa, o‘z tilini areallar bo‘yicha mukammalroq bilishga o‘rgatadi.

Shevalar bo‘yicha dialektal fonetik-fonologik, leksik-semantik va morfogrammatik lisoniy xususiyatlar ta’lim tizimida o‘qituvchi va o‘quvchilar til

kompetentligini boyitish va rivojlantirishga, ular ongiga adabiy til me'yorlarini singdirishga va nutq madaniyatini shakllantirishga salbiy ta'sir etmasligi uchun amaliy tilshunoslik masalalarini kun tartibiga qo'yish bugungi tilshunosligimiz, fanimiz va milliy adabiy tilimizning rivojlantirish yo'lidagi muhim va dolzarb vazifalardandir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurboyev S. Areal lingvistika. Darslik. – Toshkent: Bookmany print, 2023.– B.3-8;
2. Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2-жилд, 2012. – Б. 425-426
3. Шерматов А. Лингвистик география нима? – Тошкент: Фан, 1981. – Б. 4.
4. Поливанов Е.Д. Ўзбек тили грамматикаси бўйича материаллар. Ўзбек диалектологияси ва ўзбек адабий тили (ўзбек тили қурилишининг ҳозирги босқичи). Тошкент, 1933. – 45 с.
5. Юдахин К.К. Қорабулоқ шевасининг айрим хусусиятлари. – Тошкент, 1957. – С. 31-59.
6. Боровков А.К. Ўзбек шеваларини таснифлаш масалалари // Изв. АН УзССР. – Тошкент, 1953. – № 5. – С. 58-74.
7. Решетов В. В. Ангрен водийси ўзбек шеваларининг таснифлари. – Бюллетень АН УзССР. – Тошкент, 1946. – С. 55-84.
8. Ишаев А. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. II. – Тошкент: Фан, 1961. – 465 б.
9. Абдуллаев Ф. А. Ўзбек диалектологиясидан материаллар. II. – Тошкент: Фан, 1961. - С. 34-56.
10. Отамирзаева С. Экспремен-тально-фонетической исследование Наманганского говора узбекского языка. –Тошкент, 1974. - С. 29-41.
11. Polivanov E.D. Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. – Тошкент: Учпедгосиздат, 1938. – С.190.

12. Дарвишов И. Ареал тилшунослик: жануби-ғарбий Наманган шеваларининг фонетик-фонологик хусусиятлари. – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б.15-21